25 ta davlat — shularning ichida O'zbekistondan ham kelgan turist va ziyoratchilarining Saudiya Arabistoniga kirib kelishi vaqtinchalik ma'n etilgani sababli 2020-yilning 27-fevralidan boshlab Uzbekistan Airways aviakompaniyasining Toshkentdan Jidda va Madinaga bo'lgan barcha qatnovlari vaqtinchalik to'xtatib qo'yilmoqda. Bunday qaror qabul qilinganligini mamlakat hukumati COVID-19 koronavirusi tarqalishining xavfini oldini olish zarurligi bilan tushuntirmoqda.

Shu bilan birga aviakompaniya tomonidan qisqa vaqt ichida faqatgina bizning fuqarolarimiz Saudiya Arabistonidan qaytib kelishlari uchun bir necha qatnovlar amalga oshirilishi haqida xabar bermoqdamiz.

Qo’shimcha ma'lumotlar uchun O'zbekiston musulmonlari idorasining 71-240-39-33 telefon raqamiga yoki 78-140-02-00 orqali aviakompaniyaning yagona aloqa markaziga murojaat qilishingizni so'raymiz.



Download PDF